



PEDAGOGIK TA'LIMDA MAS'ULIYAT VA KOMPETENSIYA MASALALARI

Otaxonova Mahliyo Odilxon qizi

Uychi Jismoniy tarbiya va sport texnikumi,
Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi talabasi
+998882162242, otaxonovamahliyo53@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14637203>

ARTICLE INFO

Received: 9th January 2025
Accepted: 10th January 2025
Published: 13th January 2025

KEYWORDS

kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, mas'uliyat, pedagogika, kasbiy faoliyat

ABSTRACT

Ushbu maqolada kompetensiya atamasi haqida qisqacha tushuncha berilgan. Pedagogika sohasida MAS'ULIYAT va KOMPETENSIYA masalalari haqida tushunchalar berilgan. Kompetensiya kompetensiyaviy yondashuv haqida izlanishlar olib borilganligi haqida ma'lumot yoritilgan.

O'z davrida Britaniya davlat va siyosat arbobi va yozuvchi Uinston Cherchill shunday degan edi "Buyuklikning qadr-qimmatini mas'uliyat bilan o'lchanadi." Darhaqiqat shu hikmatli so'zni esda tutish joizki, zero pedagogika ushbu so'z zamirida amalga oshirilajak amaliyotlar negizida kamolotga erishishi mumkin. Shu bois, Respublikamiz hukumati hozirgi kunda mamlakat ravnaqi va kelajagi uchun ta'lim sohasini isloh etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturimizda nazarda tutilgan vazifalar to'liq amalga oshgan taqdirda ular birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi. Ikkinchidan, ta'limning yangi modeli ishga tushgach, insonning hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi. Har qanday inson endigina kasbiy jihatdan kamol topib kelayotgan bir davrda jamiyatdan munosib o'rin topishi kerak. [1]

Oxirgi yillarda tez tez chalinayotgan kompetensiya atamasi (lotincha: competo — erishyapman, munosibman, loyiqman) — 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba.[2] Bundan kelib chiqadiki, Kompetensiya — kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmuasini anglatadi. Kompetensiya tushunchasi nisbatan yaqindan boshlab, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlaridan keng qo'llanila boshlandi.

Kompetensiya – ma'lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning ta'limiy tayyorgarligiga qo'yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo'lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo'lib, u o'quvchi (ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ta'limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-

kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetentlikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta'limining asosiy sharti hisoblanadi. Bu talab o'qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir.

Bugungi kunda dunyo ta'limini yangilashning asosiy yo'nalishi ta'lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko'ra olish, unda tizimli faoliyat ko'rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir.[3]

Kompetensiyaga asoslangan yondoshuvni ilk bora fanga amerikalik tadqiqotchi N. Chomskiy kiritgan bo'lib N. Chomskiy 1965 da Massachusetts universitetida til nazariyasiga nisbatan «kompetensiya» atamasini taklif qildi. Bunda u "kompetensiya yoki tilni bilish va foydalana olish yoki tilni haqiqatda ishlata olish tushunchalari o'rtasidagi farqni asosini anglash" nazaryasini ilgari suradi va kompetentlikga asoslangan yondoshuv "Competence Based education" ta'limiga asos solidi. Kompetentlikga asoslangan faolyat asoschilaridan biri Djon Flangin uchuvchilarni ishga qabul qilishda nafaqat na'zariy bilim shu bilan birga aniq vaziyatlarda hodim qanday qaror qabul qilishi xulq – atvor reaksiyalari muhumlugini takidlaydi. Devid Makklelland «aqlni emas, balki kompetentlikni tekshirish» (1973) tadqiqotida diplom va mavzu bo'yicha bilim emas, balki kasbiy vazifalarni bajarish uchun kompetentlikni shakllantirishning ahamiyati haqida gapiradi.

Kasbiy kompetensiya hozirgi kunda ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi innovatsiyon o'zgarishlar bilan ajralib turishi sababli alohida ahamiyatga ega. Hozirgi sharoitda o'qituvchi muvaffaqiyatli va talabga javob berish uchun har qanday o'zgarishlarga tayyor bo'lishi, yangi sharoitlarga tez va samarali moslasha olishi, professional bo'lish istagini ko'rsatishi, bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab turishi, o'zini rivojlantirishga intilishi professional kompetentlikga ega bo'lishi talab etiladi.

Biroq, ijtimoiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, bu xususiyatlar barcha o'qituvchilar tomonidan shakllanmaydi. Aksincha, ularning katta qismi tez o'zgaruvchan ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy sharoitlarga moslashishda katta qiyinchiliklarga duch keladilar, so'ngra kasbiy malakaning yetishmasligi shaxsning jiddiy ijtimoiy-psixologik muammolarini keltirib chiqaradi, jumladan ichki norozilikdan ijtimoiy qarama-qarshilik kabi holatlarga olib keladi.[4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "2022-2026 yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi farmoni \ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2022.-06/22/0082-son. B. 47.
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/pedagoglar/talim-va-men/kompetensiya-nima/>
4. "TA'LIM JARAYONIGA KOMPETENSIYAVIY YONDOSHUVDA PEDAGOGNING RAQAMLI KOMPETENTLIKNING AHAMIYATI" <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.7.7.027>
To'xtayeva Fazilat Shavkat qizi